

ISSN 2181-6883

# **PEDAGOGIK MAHORAT**

**Ilmiy-nazariy va metodik jurnal**

**MAXSUS SON (2021-yil, MAY)**

**Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan**

**Buxoro – 2021**

Akmal AMINOV. Autocad grafik dasturida geometrik obyektning koordinatalarini kiritishning o'ziga xos usullari .....	109
Жахонгир БАТЫРОВ. Средневековые миниатюры в классической литературе востока .....	114
Шахноза ИБАДУЛЛАЕВА. Художественные способности в обучении изобразительному искусству.....	117
Nigora IBATOVA. Yangi pedagogik texnologiyalarni tasviriy san'at mashg'ulotlarida qo'llash usullari ...	120
Boburmirzo KO'KIYEV. Yordamchi proyeksiyalash usulida pozitsion masalalarni yechishning metodik qulayligi .....	124
Азиза МУСИНОВА, Норжон ХАМРАЕВА. Декоративно-прикладное искусство в современном художественном пространстве .....	127
Nafisa AVLIYAKULOVA. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarni tasviriy-ijodiy faoliyatga jalb etish ....	132
Гулшод ОСТОНОВА. Умумий ўрта таълим мактаб ўқувчиларида тасвирий санъат асарларининг идрок ва тасаввур қилинишини ривожлантириш муаммоси ва ўзбекистонлик олимлар томонидан ўрганилганлик ҳолати .....	135
Наргиза РАФИЕВА. Бошланғич синф тасвирий санъат дарсларида Камолиддин Бехзод меросининг ахамияти .....	139
Sharofat SOBIROVA. Chizmachilik fanini o'qitishda talabalarni mustaqil ijodiy faoliyatga jalb qilishda konstruktiv loyihalash masalaridan foydalanishning metodik asoslari .....	142
Oybek SHOMURODOV. Tasviriy sa'nat darslarida manzara janri orqali o'quvchilar ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning nazariy asoslari.....	145
Avazjon SHUKUROV. Chizmachilikda loyihalash va ijodkorlik grafik tayyorgarlikning texnik ahamiyati	149
Феруза МАМУРОВА. Компетентли ёндашув таълим олувчининг касбий сифатларини шакллантириш .....	152
Шерали АВЕЗОВ. Бўлажак тасвирий санъат ўқитувчилари креатив компетентлигини шакллантириш муаммосининг назарий таҳлили.....	155

Nafisa AVLIYAKULOVA

Buxoro davlat universiteti  
tasviriy san'at va muhandislik grafikasi  
kafedrası o'qituvchisi**BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARNI TASVIRIY-IJODIY FAOLIYATGA  
JALB ETISH**

*Ushbu maqolada oliy ta'limning bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tasviriy-ijodiy faoliyatga tayyorlash texnologiyalaridan foydalanish va ularni jalb etish yo'llari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *texnikasi, konsepsiya, didaktik, mexanizm, badiiy-ijodiy, manfaatlar, tashkiliy-huquqiy, tadqiqot.*

*В данной статье представлена информация об использовании технологий подготовки будущих учителей изобразительного искусства высшего образования к изобразительно-творческой деятельности и путях их вовлечения.*

**Ключевые слова:** *методика, понятие, дидактика, механизм, художественно-творческие, интересы, организационно-правовые, исследовательские.*

*This article provides information about the use of technologies for training future teachers of fine arts of higher education for visual and creative activities and ways to involve them.*

**Key words:** *methodology, concept, didactics, mechanism, artistic and creative, interests, organizational and legal, research.*

**Kirish.** Hayotimizga, faoliyatimizga globallashuv jarayonining tez sur'atlar bilan kirib kelayotgan bir davrda, o'z bilimi, kuchi, imkoniyatlariga tayanadigan, xalq, mamlakat manfaatlarini o'z manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan mutaxassislarni tayyorlash masalasining davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi, mamlakatda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslari konsepsiyasini amalga oshirish sharoitida mustaqil, ijodiy fikrlovchi, davr fani, texnikasi va uning ishlash texnologiyasini mukammal egallagan, ishbilarmon mutaxassislarni tayyorlash bugungi oliy ta'lim muassasalari oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Badiiy-ijodiy faoliyatni tashkil etish muammosi dolzarb bo'lib, psixologik-pedagogik va uslubiy tadqiqotlar obyekti hisoblanadi. Badiiy va estetik subyektlarning qisqarishi darsdan tashqari ishlarning qo'shimcha ta'lim tizimiga aylanishi bilan shaxs va jamiyat uchun turli xil norasmiy ta'limga bo'lgan ehtiyoj ortadi. Ijodiy jarayon bilim jarayoni bilan bog'liq. Shuning uchun uning mohiyati mavjud tajribani o'zgartirish, uning asosida yangi ijod mahsulotini shakllantirish va yaratishdan iborat.

Mamlakatimizda ushbu yo'nalishga ilg'or pedagogik tajribalar va ta'lim nazariyasiga oid yutuqlarni amaliyotga joriy etish bugungi kunda yildan-yilga ortib bormoqda. Bo'lajak o'qituvchilarni tasviriy-ijodiy faoliyatga jalb etish kabi ko'plab tajribalar vujudga kelmoqda va to'planmoqda. Azaldan ijodkorlikning boshlanishi bo'lgan insondagi ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish masalasi bevosita bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi bo'lajak pedagoglarni ham, ilmiy tadqiqotchilarni ham birdek qiziqitirib keladi. Shaxsning shakllanishi, qobiliyatlarni rivojlantirish hanuzgacha zamonaviy pedagogikaning eng dolzarb masalasi bo'lib qolmoqda.

**Asosiy qism.** Bugungi kunda jamiyatdagi yuz berayotgan katta o'zgarishlar maktab oldiga o'quv faoliyatining ijodkor shaxsini shakllantirish bilan bog'liq muammolar yechimini hal etish vazifasini qo'yimoqda. Bu muammolarning yechimini topishda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Tasviriy-ijodiy faoliyatda vazifalarni turli materiallar va texnikada ishlash, bolalarning ijodiy tashabbusini uyg'otishi, fantaziyasi va tasavvurlarini o'stirishning muhim sharti hisoblanadi. Ushbu faoliyatda bo'lajak o'qituvchilarni tasviriy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, yaratuvchanlik, ijodga noan'anaviy yondashish va o'z fikrida turish ko'nikmalarini oshirishi, maqsadli, o'z ustida tinimsiz ishlashi uchun shart-sharoitlar yaratilishi kerak. Mazkur masala moliyalashtirish, tashkiliy-huquqiy va kadrlar bilan bog'liq alohida tadqiqotlar o'tkazish zarurligini ko'rsatmoqda.

XX asr oxiri XXI asrning dastlabki yillari davomida xorijda, MDHda, xususan, mamlakatimizda bo'lajak mutaxassislarning axloqiy, estetik, badiiy-estetik, ma'naviy, ekologik, iqtisodiy tarbiyasi, kasbiy, umumpedagogik, didaktik, kasbiy-madaniy tayyorgarligi yo'nalishlarida falsafiy, pedagogik, psixologik tadqiqotlar olib borildi, qo'llanmalar, risolalar chop etildi.

Muammoning ilmiy-nazariy asoslari mamlakatimizning metodist-olimlari R.Choriyev, R.Axmedov, M.Nabiyev, N.Qo'ziboyev, B.Boboyev kabilar bilan birga B.Jalolov, J.Umarbekov, I.Turg'unazarov, Y.Taldikin, V.Burmakin, S.Alibekov, Akmal Nur, L.Ibragimov, T.Kuryazov, A.Ikromjonov, V.Oxunov va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida ma'lum darajada o'z ifodasini topgan.

Masalaning axloqiy-estetik tarbiya va madaniyat, ma'naviy madaniyat, o'quvchi-yoshlar ma'naviyatini shakllantirishning pedagogik asoslarini ishlab chiqish U.I.Mahkamov, R.Hasanov, N.Ortiqov, S.Bulatov, M.Inomova, S.Nishonova, T.Qurbonov, M.Ochilov, S.Annamuratova, S.Fayzulina, O.Musurmonova, Z.K.Ismoilova, M.K.Hoshimova, B.O'.Qo'chqorov, G.Ibragimova, G.Mahmutova, N.Egamberdiyeva, Sh.Olimov, tarbiya asoslari va milliy tarbiya masalalari S.Ochilov, M.Quronov, Q.Qurbonboyeva, F.Norboyevlarning ishlarida tadqiq qilingan.

Muammoning psixologik jihatlarini M.G.Davletshin, E.G'oziyev, G'.Shodmonov, V.Karimova, A.V.Petrovskiy, V.A.Krutetskiy, N.V.Kuzmina, E.A.Klimov, R.Sunnatova, Sh.Barotov va boshqalarning ishlarida o'rganilgan. Bo'lajak o'qituvchini kasbiy tayyorlashning umumpedagogik va didaktik jihatlarini O.A.Abdulina, V.A.Selastenin, O'.Q.Tolipov, U.Nishonaliyev, R.H.Djo'rayev, F.R.Yuzlikaev, A.I.Vorobyov, A.R.Xodjabayev, E.T.Choriyev, M.M.Axmedjanov, N.A.Muslimov, U.I.Inoyatov, Sh.Sharipov, X.F.Rashidov, O.A.Abdulquddusovlar tomonidan ishlab chiqilgan.

Oliy ta'lim tizimida o'qituvchi shaxsini shakllantirish, bo'lajak mutaxassislarda milliy iftixor, Vatan ravnaqi, ogohlik va fidoyilik, fuqarolik madaniyatini shakllantirish masalalari D.Ro'ziyeva, M.Aripova, Sh.Rahimovlarning ilmiy tadqiqot ishlarida ma'lum darajada o'z ifodasini topgan.

Pedagogika nazariyasida va amaliyotida yoritilishi, tadqiq qilinishini o'rganish shundan dalolat bermoqdaki, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-shaxsiy, kasbiy-madaniy munosabatlari, kasbiy madaniyati, kasbiy shakllanishi va pedagogik mahoratini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Ta'limdagi innovatsion jarayonlarning tadqiq etishda innovatsiyalar va o'qituvchining ijodiy faoliyatiga tegishli nazariy-metodologik xarakterdagi bir qator muammolar ilgari surilmoqda.

Bo'lajak o'qituvchilarni tasviriy-ijodiy faoliyatga tayyorlashda, pedagogik innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqish, tasviriy san'at asarlarining ijodiy ko'rgazmalarini tashkil qilish, tasviriy-ijodiy tadbirlarning nazariy va amaliy bilim, ko'nikma, malakalarga ega bo'lgan mutaxassisliklarni tayyorlashga yo'naltirish zarur. Shuningdek, mazkur jarayonning samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilgan madaniy xulq, odob-axloqni ta'minlaydigan, kasbiy malaka, ijtimoiy-pedagogik bilimlarni singdiriladigan, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tizimi, ilmiy-pedagogik va metodik ta'minotni amalga oshiruvchi mexanizmlarni qo'llash bo'lajak o'qituvchilar uchun muhim zamin bo'la oladi.

Erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida ma'naviy-axloqiy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim va ma'rifatni yuksaltirish, jahon andozalariga javob beradigan, yangi avlodni voyaga yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Madaniy me'ros va yuksak badiiylik milliy an'analarni rivojlantirish, undan foydalanish, undagi ijodiy faoliyat uslublarini joriy etish, tabiiy materiallar bilan ishlash, oliy ta'lim talabalarida qunt, chidam, qat'iyat, tasviriy san'atning falsafiy, psixologik qirralarini o'rgatish maqsadga muvofiqdir.

Respublikamizda ro'y berayotgan o'zgarishlar barcha sohalaridagi kabi bo'lajak tasviriy san'at pedagoglarining zimmasiga ham o'ta ma'suliyatli vazifalarni yuklaydi. Darhaqiqat xalqimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritib xalqaro miqyosida to'la o'zligini namoyish qildi.

Tasviriy san'at, ya'ni ma'naviyat o'qituvchisi boshqa fanlar o'qituvchilari kabi birinchi galda eng yuksak fazilatli, axloqiy pok, imon va e'tiqodli, halol va sofdil, talabalarga, o'smir va yoshlarga nisbatan o'ta mehribon, o'ta talabchan va o'zbek xalqining urf-odatlarini, an'analarini mukammal biladigan va hurmatini joyiga qo'yadigan bo'lishi kerak.

**Muhokamalar va natijalar.** O'qituvchining kasbiy xususiyatlari borasida to'xtalganda shuni ta'kidlash lozimki, u, eng avvalo, o'z kasbining jonkuyari, uni dildan sevadigan, o'z ishiga ijodiy va ilmiy yondashadigan shaxs bo'lmog'i ta'lab etiladi. Bu shaxsda yangi bilimlar va ilg'or tajribalariga chanqoqlik, muhimi unda tashkilotchilik, kuzatuvchanlik, qat'iylik va insoniylik xususiyatlari yaqqol sezilib tursin. O'qituvchi tasviriy san'atdan maxsus bilim va malakalar bilan qurollanmasdan turib muallimlikni bajara olmaydi yoki o'quvchi yoshlarga tabiiy go'zalligini, ona Vatanimizning tarixini, milliy merosimizning tarixini ta'rifi bilan bera olmaydi, hamda o'z kasbiga qiziqтира olmaydi.

Bugungi talaba, bo'lajak pedagog, o'zbek xalqining hamda o'tmishi bor bo'lgan Markaziy Osiyo xalqlarining amaliy va tasviriy san'at borasidagi noyob namunalarini o'zlashtirgan bo'lishi va to'laligicha o'quvchi yoshlarga ulashmog'i ayni davr talabidir. Shu sababli bo'lajak rassom-pedagoglarga quyidagi talablar yuklanadi:

- o'zlari ta'lim berishi lozim bo'lgan o'smir va yoshlarga san'at sirlarini, madaniy meros namunalarini har tomonlama o'rgatish;
- ayni yangilanish, rivojlanish davrida yosh avlodni bilimdon, yaratuvchan, yuksak madaniyatli va mustaqil mamlakat taqdiri uchun ma'sul shaxslar qilib tarbiyalash;
- ulug'vor bunyodkorlik ishida malakali, g'ayratli o'qituvchilar yoshlar peshqadamlik qilmoqlari uchun zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash;

- talabalarni tasviriy sanʼat yoʻnalishi buyicha ijodkorlikka yetaklash, layoqat sezilganda esa astoydil oʻrgatish uchun maxsus maktab yoki toʻgaraklarga jalb etish;
- oʻquvchi va yoshlarga nafis sanʼat sirlarini oʻrgatish borasida oʻz ustida doimo izlanish, talabalar faoliyatini rivojlantirib, toʻgʻri va asosli shakllantirish uchun pedagogik qoidalar asosida tajribalar olib borish;
- turli davr, turli xalqlarga mansub tasviriy sanʼat asarlarini mushohada qila olmogʻi va uni tushunish sirlarini yoshlarga ulashish uslublariga ega boʻlish;
- tasviriy sanʼat insonni shakllantirishdagi muhim va ishonchli vositalardandir, bunday imkoniyatni har bir mashgʻulotda qoʻllash uchun yangicha uslub va mumkin boʻlgan usullarini ishga solish hamda amalda qoʻllay olish mahoratini oʻrgatish;
- zamon talabi bilan dars va mashgʻulotlarni noanʼanaviy dars rejalari bilan oʻtkazish;
- jahon andozalariga xos yangi texnologiyalarini oʻrganib, darsda qoʻllay olish mahoratini egallashi kerak.

Yuqorida zikr etilgan talablarni oʻzida mujassam etgan har qanday talabaga kelajak avlodimizni ishonib topshirsak boʻladi.

Tasviriy sanʼat muallimi – ilmiy izlanuvchan ijodkor. Rassom oʻqituvchilar qayerda, qanday oʻquv maskanida taʼlim jarayonini olib borishidan qatʼiy nazar pedagogik faoliyati ijodiy izlanishlar bilan boyitib borsa, shundagina yaxshi shogirdlar, haqiqiy rassomlarni shakllantirish imkoniyatiga ega boʻladi. Oliy oʻquv yurtlarida boʻlajak oʻqituvchilarni tasviriy-ijodiy, siyosiy-gʻoyaviy va estetik ruhda tarbiyalashda, goʻzallikni seza bilishga, tasviriy sanʼat asarlarini kitob oʻqigandek oʻqiy olishga, ulardan bahra olishga, izlanuvchanlik va yaratuvchanlik qobiliyatlarini oshirishga, tasviriy sanʼatga boʻlgan qiziqishini kuchaytirish, tasviriy ijodiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol oʻynaydi.

Tasviriy sanʼat mashgʻulotlari har tomonlama rivojlangan insonning tarbiyalashi uchun boy imkoniyatlar ochib beradi. Tasviriy sanʼat bilan shugʻullanish bolalarning aqliy va estetik jihatdan rivojlantiradi, atrof dunyoni tushunishiga koʻmaklashadi, buyumlarni eʼtibor bilan kuzatishga, ularning shaklini tahlil qilishga oʻrgatadi. Tasviriy sanʼatdan savodni chiqarmasdan turib, kishi sanʼatni tushunishi ham, qadrlashi ham, undan huzur qilishni ham bila olmaydi. Bolalar tarbiyasida zamondoshlarimiz mehnatini goʻzalligini koʻrsatishga, mustaqil davlat taraqqiyoti yutuqlarini oʻrganish alohida oʻrin egallaydi. Bu oʻquvchilarning ijodiy aktivligini oshirishga ularning kuchini, maʼnaviy quvvatini yangi hayot qurish uchun kurashga safarbar etishga koʻmaklashadi.

Hozirgi kun oʻqituvchisi bolalar bilan ishlaganda bu qobiliyatlarning yanada samaraliroq rivojlanishiga yordam berishi, oʻquvchilarning aqliy va amaliy malakalarini faollashtirishni taʼminlaydigan taʼlim usullari va metodlarini qoʻllashga diqqatini qaratishi lozim. Buning uchun oʻqituvchi taʼlim muassasasidagi shart-sharoitlar va oʻz imkoniyatlaridan kengroq foydalanishi maqsadga muvofiq boʻladi.

**Xulosa.** Talabalarimizning ijodiy xarakterga ega boʻlgan faoliyatning muayyan mahsulida amalga oshadigan harakat malakalarida namoyon boʻladigan tasviriy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va shakllantirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvdan keng foydalanish jamiyat va davlatni istiqbolli rivojlanishi, mamlakatning jahondagi yetakchi oʻrinlarni egallashining muhim omili ekanligi rivojlangan mamlakatlar misolida ham namoyon boʻladi.

### Adabiyotlar

1. Abdurasilov S., Tolipov N. Tasviriy sanat oʻqitish metodikasi (amaliy mashgʻulotlar). –Toshkent, 2007-yil
  2. Abdullayev S.S., Azimov S.S, Avezov Sh.N. Tasviriy sanʼat va muhandislik grafikasini oʻqitish metodikasi. -Buxoro: “Durdona”, 2020-yil
  3. Орипов Б. Тасвирий санъат дарслари самарадорлигини ошириш омиллари. –Ташкент: “Ўқитувчи”, 1978.
  4. Гиппиус Г.А. Очерки теории рисования как общего учебного предмета. –СПб., 1844.
  5. Muzafarova A.N. THIS IS THE ROLE OF VISUAL ART IN ATTRACTING STUDENTS TO VISUAL AND CREATIVE ACTIVITIES //International Engineering Journal For Research & Development. – 2020. – Т. 5. – № 6. – С. 3-3.
- <http://kutubxona.ada.uz/kutubxona>  
<http://library.ziyonet.uz>  
<https://www.sgu.ru>